



Pedagogika fanining rivojlanishida Sharq allomalarining qo'shgan ulkan hissasi

Bazarova Gulchehra Sadilloevna
Osiyo xalqaro Universiteti 1-bosqich magistranti

Annotatsiya: Maqolada pedagogika fanining shakllknishi tarixi va zamonaviy ta'lim tizimida sharq mutafakkirlarining pedagogik qarashlari hamda ma'naviy merosining o'rni beqiesligi, ajdodlar g'oyasini takomillashtirish evaziga ta'limni yuksak bosqichga ko'tarish haqida fikrlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: pedagogika, fanning rivojlanishi, ta'lim-tarbiya, sharq mutafakkirlarining qarashlari, ma'naviy meros, ajdodlar g'oyasi.

Kurrai zaminda inson deb atalmish buyuk mavjudot paydo bo'libdiki, u ta'lim tarbiya bilan shug'ullanib keladi, kamolotga intiladi. Yoshi ulug'lar o'sib kelayotgan yosh avlodga o'zlarining hayotiy tajribalarini, odamiylik fazilatlarini, egallagan bilimlari, ko'nikma va malakalarini singdirishga harakat qilishadi. Bu vazifalar turli usullarda va turlicha hal etilgan bo'lib, ularning natijasi sifatida, pedagogika fanining dastlabki ta'limotlari tashkil topgan. Insonlarning tafakkuri, bilimi ularning ijtimoiy tajribalarida aks etgan. Tarixshunos olimlarning ta'kidlashlaricha, minglab yillar oldin kishilar etuk onglilik asosida madaniy meros namunalarini qoldirib ketishgan. Ammo ularda keltirilgan ta'lim-tarbiyaning mazmuni va mohiyati. qanday amalga oshirilganligi mukammal tarzda bizgacha etib kelmagan. Ayniqsa ko'hna sharq mamlakatlari Xitoy, Hindiston, Markaziy Osiyo, Arabiston, Eron, Turkiya va boshqa o'lkalarda juda mukammal ta'lim tarbiya tizimi mavjud bo'lganligi madaniy-me'moriy yodgorlikda turli sa'nat va muxandislik inshoatlarida uchratish mumkin.

Turli manbalar va mualliflarning ta'riflaridan pedagogikaga "Jamiyatning barcha a'zolarini ijtimoiy ehtiyoja mos holda tarbiyalash, shaxs sifatida shakllantirish, zamonaviy bilim ko'nikma va malakalar berishning uslublarini va mazmun mohiyatini o'rganuvchi fandir" - deya tarif berish maqsadga muvofiq.

Pedagogika fanining taraqqiyotida Sharq uyg'onish davri allomalarining qo'shgan hissalari beqies bo'lgan. Yurtboshimiz SH.M.Mirziyoevning «Diyorimizdan etishib chiqqan atoqli allomalar, algebra fani va algoritm tushunchasiga asos solgan Al-Xorazmiy, mineralogiya fanining tamal toshini qo'ygan Al-Beruniy, dunyoda Avitsenna nomi bilan tanilgan mashhur tibbiyot olimi Ibn Sino, bir ming o'n sakkizta yulduzning koordinatlarini va harakatini aniq belgilab bergen buyuk astronom Mirzo Ulug'bek, Nil daryosining sathini o'Ichovchi noyob uskuna yaratgan alloma Ahmad Farg'oniy kabi ulug'ajdodlarimiz o'zlarining bebaho asarlari, ilmiy va ijodiy kashfiyotlari bilan O'rta asrlardagi birinchi va ikkinchi Sharq renessansi rivojiga ulkan hissa qo'shganlar» degan gaplari fikrimizning yaqqol dalilidir²⁴.

²⁴ Мирзиёев.И.М. Кичик ёшдаги болаларни тарбиялаш ва таълим бериш бўйича иккинчи бутунжакон конференцияси очилиш маросимиидаги нутқи. 2022.15.11.



Sharq mutafakkirlaridan Muso Al-Xorazmiy, Axmad Al-Farg‘oniy, Axmad-Yugnakiy, Imom Al-Buxoriy, Iso At-Termiziy, Abu Nasr Forobiy va boshqalar o‘zlarining buyuk ilmiy kashfiётlari bilan birga pedagogikaning turli muammolarini ishlab chiqdilar.

Ma’mun akademiyasiga asos solgan, “Baytul hikma”da ilmiy ishlarni boshqargan **Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy** algebra faniga asos soldi, ilmiy ma’lumot va traktatlarni bayon etishning aniq qoidalarini ishlab chiqdi, u astronomiya, geografiya va iqlim nazariyasi bo‘yicha ko‘plab ilmiy asarlar muallifidir. Allomaning dunyo ilm-fani rivojidagi xizmatlari umume’tirof etilgan bo‘lib, SHarq olimlari orasida faqat uning nomi va asarlari “algoritm” va “algebra” kabi zamonaviy ilmiy atamalarda abadiylashtirildi”.

Jahon ilm-ma’rifatining buyuk namoyandasini Abu Abdulloh Muxammad ibn Muso al-Xorazmiy matematika fani sohasida yangilik yaratgan nazariyotchi va pedagog uslubiyatchi olim sifatida «Al-kitob al-muxtasar fi hisob al-jabr val muqobala» («Al-jabr muqobala hisobi haqida qisqacha kitob») asarida matematika fanida abstraksiya (mavhumiylik) tushunchasini kengaytirdi. Induksiya yo’li bilan umumi yechish usullarini hal etdi, deduksiya yo’li bilan umumi usullar yordamida turli xususiy masalalarni yechdi.

Buyuk mutafakkir Muxammad Muso al-Xorazmiy bilimlarni egallashda ko’rgazmali vositalardan foydalanish, ta’limda mantiqiy tafakkur, shaxsiy kuzatish va tajribalarga tayanish, savol-javob, bahs-munozara kabi ta’lim usullaridan keng foydalangan holda talabalarda mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, ularda olgan bilimlarini amaliyotga tatbiq eta olish malaka va ko’nikmalarini tarkib toptirish to‘g‘risida to‘xtalib: «... sezgi orqali bilish, bu qisman bilish bo’lsa, mantiqiy bayon, aqliy bilish esa xaqiqiy bilishning muhim tomonini bayon etadi. ... insonning xulq-atvori, hatti-harakati mantiqiy fikrlashga asoslangandagina mukammal shakllanishi mumkin»²⁵, deydi.

Vatandoshimiz Axmad Al-Farg‘oniy arab tilidagi ilmiy atamashunoslikka doir ishlarni, xususan, falakiyot, riyoziyot va jug‘rofiyaga oid atamalarni belgilab chiqishdek maxsus ilmiy ishlarni amalga oshirishda Ahmad al-Farg‘oniyning xizmati katta. Bulardan tashqari, u ayrim astronomik asboblarni ixtiro etish, falakiyotshunoslikka doir arab tilidagi boshlang‘ich bilimlarni belgilash va tartibga solish ishlariga ham muhim hissa qo’shdi.

O‘z davridagi aniq fanlarning deyarli barcha sohalarida tadqiqotlar olib borib, yuzga yaqin asar yaratgan al-Farg‘oniyning faqat sakkizta asari bizgacha etib kelganligi ma’lum. Al-Farg‘oniyning buyuk xizmatlaridan biri shundaki, u o‘zining "Yulduzlar ilmi usuli kitobi" asarida I asrda yashab o‘tgan mashhur Klavdiy Ptolemyning falakiyot sohasida asosiy qomus hisoblangan "Almagast" asaridagi talay xatolarni aniqlab, to‘g‘rilab bergen.

Islomshunos olim **Ahmad Yugnakiy** diniy bilimlarni puxta egallab, o‘sha davrning yetuk allomalaridan biriga aylangan. U salohiyatli shoir va axloq muallimidir. Adibdan bizgacha yetib kelgan yagona yaxlit asar “Hibat ul-haqoyiq” (“Haqiqatlar tuhfasi”) dostoni bo‘lib, 484 misradan iborat. Ushbu doston turkiy elatlarga islomiy odob qoidalari, ma’naviy-axloqiy kamolot sirlaridan ta’lim berishga mo‘ljallangan. Buni undagi bob sarlavhalaridan ham anglash mumkin. Birinchi bob – “Ilm manfaati va jaholatning zarari haqida” deb atalib, unda Payg‘ambarimiz s.a.v ning “Ilm Chin eli (ya’ni Xitoy)da

²⁵ Баходиров Р. Шарқ мутафаккири. Абу Абдулоҳ ал-Хоразмий ва илмлар таснифи. - Т.: «Узбекистон», 1995. -71-6.



bo‘lsa ham, o‘rganing!” degan hadislari arab tilida keltirilgan va ushbu fikr turkiy to‘rtliklar shaklida sharhlangan. “Saodat yo‘li bilim bilan bилинди”, deydi adib. U bilim egasi bo‘lgan ayol kishini erlar qatorida ko‘radi, bilimsiz erkakni esa ayoldan ham zaif biladi. Ahmad Yugnakiy bilimsizlikni qoralab yana Rasululloh alayhissalom hadislariga murojaat etadi: “Tangri hech qachon johillarni aziz qilgan emas”. Ilm qadriga faqat ma’rifatli odam yetadi, nodonga esa nasihat befoydadir. Adibning fikricha, bilim tunganmas boylikdir, u faqir kishini boy etadi, ilm ahlini esa arab ham, ajam ham olqishlaydi²⁶.

Yirik olim Imom Buxoriy o‘zining axloqi bilan bizga namuna bo‘lgan inson. Go‘zal namunaligi, muruvvatliligi, diyonatligi, saxovatliligi bilan boshqalardan tamomila farq qilgan sha[s]. Shuningdek, alloma juda o‘tkir zehn egasi va yodlash qobiliyatları kuchli bo‘lgan, ilm-ma’rifatga bo‘lgan kuchli ishtiyoqi bilan tanilgan.

Buxoriy hazratlarining cheksiz ilmgaga bo‘lgan muhabbatি barchani hayratda qoldiradi. Hadis ilmiga bo‘lgan intilish, ularning to‘plashga qaratilgan yuksak e’tibor bu kabi din ilmining inson ruhi va qalbini poklovchi ekanini va ilmgaga bo‘lgan qat’iyatligini ko‘rsatib beradi. Og‘ir va mashaqqatli yillarni bosib o‘tsada, biz avlodlarga o‘zlarining boy merosini qoldirgan. Bu nodir meros bo‘lgan asarlarning soni 20tadan ortiqdir. Ulardan eng sahih hadislar jamlangani “Sahih ul-Buxoriydir. Shuningdek, “At-tarix al-avsat”, “At-tarix assag‘ir”, Al-adab al-mubrad”, “Barr ul-volidayn” kabi qimmatli asarlar yozganlar. “Sahih ul-Buxoriy”ning ajralib turadigan xislati shundan iboratki, hadis ilmining gultoji bo‘lmish imom Buxoriy roviylarga va sanalarga alohida e’tibor qaratib, ularning ishonchli bo‘lganlarini ajratib, alohida kitob shaklda keltirganlar. Bu asar o‘z ichiga takrorlanadigan hadislar, bular 7275tani, takrorlanmaydigan holda esa 4 000 ta hadisni oladi²⁷.

Buyuk xadisshunos olim Iso At-Termizi yoshligidan turli ilmlarni egallashga zo‘r qiziqish bilan intilgan. Bolaligidan o‘ta ziyrakligi, yodlash qobiliyatining kuchliligi, noyob qobiliyati bilan o‘z tengqurlaridan ajralib turgan at-Termizi diniy va dunyoviy fanlarni, ayniqsa, hadis ilmini alohida qiziqish bilan egallab, bu boradagi o‘z bilimlarini muttasil oshirish uchun ko‘pgina SHarq mamlakatlarida safarda bo‘lgan.

Termiziy ilmiy- ijodiy ish, shogirdlar tayyorlash bilan mashg‘ul bo‘lgan va yirik muhaddis, imom sifatida mashhurlikka erishgan.

At-Termiziy qalamiga mansub asarlarning aksariyati bizgacha yetib kelgan. “Al-Jomi’ as-sahih” (“Ishonarli to‘plam”), “Ash-Shamoil an-nabaviya” yoki “Ash-Shamoil an-nabiy sallolohu alayhi va sallam” (“Payg‘ambar alayhissalomning shakl va sifatlari”), “al-Ilal fil-hadis” (“Hadislardagi illatlar”), “Risola fil-xilof val-jadal” (“Hadislardagi ixtilof va bahslar haqida risola”), “at -Ta’rix” (“Tarix”), “Kitob uz-zuhd” (“Zohidlik kitobi”), “Kitob ul-asmo val-kuno” (“Ismlar va kunyalar kitobi”) kabi asarlar shular jumlasiga kiradi. Termiziyning asarlari ichida eng mashhuri, shubhasiz, “Al-Jomi’ as-sahih” bo‘lib, 6 ta ishonchli hadislar to‘plamidan biridir²⁸.

Vatandoshimiz Abu Iso Muhammad at-Termiziy bizga boy va katta ilmiy meros qoldirdi. U Xuroson va Movarounnahrda ilk tasavvuf ta’limotchisi, huquqshunoslik,

²⁶

²⁷ Хошимов К., Нишонова С., Иномова М., Хасанов Р. Педагогика тарихи. - Т.: «Укитувчи», 1996. -79-826

²⁸ <https://www.ziyouz.com/> Ат-Термизий .”Ал-Жомиъ ас-саҳиҳ”



tabiatshunoslik, tabobat, ilmu nujum, tilshunoslik, axloq va boshqa ko‘plab qomusiy ilm sohalarida asarlar yaratgan allomadir.

Abu Nasr Forobi – jahon madaniyatiga katta hissa qo‘shgan Markaziy osiyolik mashhur faylasuf, qomusiy olim. O‘rta asrning bir qancha ilmiy yutuqlari, umuman YAqin va O‘rta SHarq mamlakatlarida taraqqiyat parvar ijtimoiy-falsafiy tafakkur rivoji uning nomi bilan bog‘liq.

Mashxur yunon faylasufi Arastudan keyin SHarkda o‘z bilimi, fikr doirasining kengligi bilan «SHarq Arastusi» yoki «Al-muallim as-soniy» («Ikkinch muallim») nomlariga sazovor bo‘lgan Abu Nasr al-Forobiyning pedagogik qarashlarga ko‘ra ta’lim texnologiyasining bosh g‘oyasi ta’lim-tarbiyaning maqsadi xamda o‘qitishning vosita va usullariga borib taqaladi. Uning fikricha, «Ta’lim degan so‘z xalqlar va shaharliklar o‘rtasida nazariy fazilatni birlashtirish, tarbiya esa shu xalklar o‘rtasidagi tug‘ma fazilat va amaliy kasb-xunar fazilatlarini birlashtirish, degan so‘zdir. Ta’lim fakat so‘z va o‘rgatish bilangina bo‘ladi. Tarbiya esa amaliy ish, tajriba bilan, ya’ni shu xalk, shu millatning amaliy malakalardan iborat bo‘lgan ish-xarakat, kasb-xunarga berilgan bo‘lishi, o‘rganishidir²⁹.

Demak, Forobiyning ta’limda barcha fanlarning nazariy asoslari o‘rganilsa, tarbiyada ma’naviy-axloqiy koidalar, odob me’yorlari o‘rganiladi, kasb-xunarga oid malakalar xosil kilinishi asoslab beriladi. Uning fikricha bu muxim vazifa tajribali ustoz-tarbiyachilar tomonidan ta’lim-tarbiyaning turli usullari yordamida amalga oshiriladi. Forobi o‘kitishning eng oson va kulay vosita xamda usullarini aniq ko‘rsatib bergen.

YUKoridagi aytilgan fikrlardan shunday xulosaga kelishimiz mumkinki, SHarkning buyuk allomalari uz asarlarida va pedagogik faoli-yatlarida talabaning akliy faolligini ta’minlaydigan, ta’lim-tarbiya jarayoni samaradorligini kafolatlaydigan dunyoviy bilimlarni ukitish uslublarining yangicha shakllarini yaratish va ta’lim-tarbiya amaliyotida qo‘llash lozim degan g‘oyani ilgari surishgan. SHuningdek, mutafakkirlar va ma’rifatparvar pedagoglar tomonidan yaratilgan pedagogik asarlarda xamda darsliklarda maktab va madrasalarda foydalanilib kelingan savol-javob usuli asosida talabalarda akliy faollik, ziyraklik, xozirjavoblik sifatlari xamda ravon nutqni shakllantirish lozimligini ta’kidlashgan. Bundan ko‘rinib turibdiki ajodollarimizdan meros bo‘lgan bu g‘oya, o‘zimizga G‘arbdan bizga pedagogik texnologiya shaklida kaytib kelgan degan xulosa kelib chikadi. Bu borada yakin o‘tmishimizga nazar tashlasak, ko‘p narsa ravshan bo‘lib, bir qator tushunmovchiliklar oydinlashadi.

SHark mutafakkirlari xulosalarining o‘ziga xosligi shundaki, ular ilgari surgan pedagogik g‘oyalar bevosita o‘ganilayotgan pedagogika fani manbaidan ajratilmagan.

Komil insonga ta’lim – tarbiya berish va rivojlantirish xaqidagi o‘ziga xos yangi pedagogik g‘oyalarning maksadi mana shu xislatlarni shakllantirishdan iborat.

YUKorida kursatilgan shaxsiy xislatlarni shakllantirish ukuv-tarbiya ishlarining asosiya vazifasi xisoblanadi. Ana shu ma’noda pedagogik jarayonda yagona maksadga - umuminsoniy xislatlarni shakllantirishga karatiladi. Pedagogik maksadlarga kanday vositalar bilan, kanday ketma-ketlik va kaysi ma’noda erishishga bog‘lik. Har bir xalk va elatning o‘z udumi, odati, turmush tarzi bor. SHuningdek boy madaniy va ma’naviy merosi

²⁹ Хошимов К., Нишонова С., Иномова М., Хасанов Р. Педагогика тарихи. - Т.: «Укитувчи», 1996. -79-826



mavjudki bular pedagogika fanining rivojlanishida albatta o‘zining ulkan hissasini qo‘shib kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoev SH.M. Kichik yoshdagи bolalarmi tarbiyalash va ta’lim berish bo‘yicha ikkinchi butunjaxon konferensiyasi ochilish marosimidagi nutqi. 2022.15.11.
- 2 . Baxodirov R. SHark mutaffakiri. Abu Abdullox al-Xorazmiy va ilmlar tasnifi. - T.: «Uzbekiston», 1995. -71-6.
3. Mahmudov Q. Ahmad YUGnakiyning «*Hibat ul-haqoyiq*» asari haqida. – Toshkent: Fan, 1972. 11-bet
- 4 . Xoshimov K., Nishonova S., Inomova M., Xasanov R. Pedagogika tarixi. - T.: «Ukituvchi», 1996. -79-82b
- 5 . At-Termiziy .”Al-Jomi’ as-sahih” asari . 4-jildi. Internet ma’lumoti.
<https://staff.tiame.uz/storage>. Murojaat etilgan sana 2023.15.08.